Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 316.6:615.851

OILADA SHAXSLARARO DESTRUKTIV MUNOSABAT

Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna
Termiz davlat universiteti psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
E-mail.xadichasharafutdinova1966@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola oilada shaxslararo destruktiv munosabat yo‘nalishlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda oila buzilishiga, ajrimlarga, munosabatlarning yomonlashuviga olib keluvchi oilaviy munosabatlar destruktsiyasi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, “nizoli oila” hamda “destruktiv munosabatli oila” ning farqi va o‘xshash jihatlari tahlil qilinib, munosabat bildirilgan. Oilaviy munosabatlar destruktsiyasining sabablari sifatida destruktiv shaxs va uning buzg‘unchilik xususiyatlari, destruktiv sevgi va uning oqibatlari, oilada destruktiv xulqli shaxs tiplari, destruktiv shaxsning o‘zini namoyish qilish, o‘zini tasdiqlatish va o‘zini rivojlantirish usullarini topishga harakat qilishi kabilar e’tirof etilgan. Oilada shaxslararo destruktiv munosabat yo‘nalishlarini belgilashga yangicha yondashib, unda ayol, erkak, farzand, oilaning boshqa a’zolarining destruktiv xulqi va uning oilaviy munosabatlar destruktsiyasining xarakterini belgilovchi omil ekanligini e’tirof etgan holda ularning har biriga ta’rif bergan. Oilada shaxslararo konstruktiv va destruktiv munosabatlarning belgilari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, oilada uzoq vaqt davomida destruktiv munosabatlarda bo‘lish ko‘pincha oila a’zolarida psixosomatik kasalliklarni paydo qilishi, doimiy stress va keskin muhit er-xotinning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir qilishi, eng achinarlisi, oilada farzandlarining normal rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi haqida fikrlar keltirilgan. Oilada shaxslararo destruktiv munosabatlarni bartaraf etishda “Umr yo‘ldoshingizni ayblamang!”, “Yashirin ehtiyojlarni tan oling!”, “Yangi konstruktiv munosabatlarni o‘rnating!” kabi psixologik usullardan namunalar keltirib, ularni qo‘llashning afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Oila, shaxslararo munosabat, destruktsiya, destruktiv shaxs, destruktiv sevgi, nizoli oila, destruktiv oila, destruktiv munosabat, yashirin ehtiyoj, munosabat yo‘nalishlari, konstruktiv munosabat.

ДЕСТРУКТИВНЫЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СЕМЬЕ

Аннотация. Данная статья посвящена направлениям деструктивных межличностных отношений в семье, раскрывает разрушение семейных отношений, его значение и сущность, что приводит к распаду семьи, расставанию, ухудшению отношений. Также были проанализированы различия и сходства между «конфликтной семьей» и «семьей с деструктивными отношениями» и высказано отношение. Причинами разрушения личности признаются деструктивная личность и ее деструктивные особенности, деструктивная любовь и ее последствия, деструктивные типы личности в семье, попытки деструктивной личности найти способы самовыражения, самоутверждения и саморазвития. семейные отношения. Имея новый подход к определению направлений межличностных деструктивных отношений в семье, определено каждое из них, признав, что деструктивное поведение женщин, мужчин, детей, других членов семьи является фактором, определяющим характер разрушения

семейных отношений. Сравнительно проанализированы признаки межличностных конструктивных и деструктивных отношений в семье. Также существуют мнения, что длительное нахождение в деструктивных отношениях в семье часто становится причиной психосоматических заболеваний у членов семьи, постоянный стресс и напряженная обстановка негативно влияют на психическое и физическое здоровье пары и, что самое прискорбное, препятствуют развитию семейных отношений, нормальное развитие детей в семье. Описаны преимущества использования таких психологических методов, как «Не вините супруга!», «Распознайте скрытые потребности!», «Наладьте новые конструктивные отношения» в устранении межличностных деструктивных отношений в семье.

Ключевые слова. Семья, межличностные отношения, деструкция, деструктивная личность, деструктивная любовь, конфликтная семья, деструктивная семья, деструктивные отношения, скрытая потребность, ориентации отношений, конструктивные отношения.

DESTRUCTIVE INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY

Annotation. This article is devoted to the directions of destructive interpersonal relationships in the family, reveals the destruction of family relationships, its meaning and essence, which leads to the collapse of the family, separation, deterioration of relations. Also, the differences and similarities between the "conflict family" and the "family with destructive relationships" were analyzed and the attitude was expressed. The reasons for the destruction of personality are recognized as a destructive personality and its destructive features, destructive love and its consequences, destructive personality types in the family, attempts of a destructive personality to find ways of self-expression, self-affirmation and self-development. family relationships. Having a new approach to determining the directions of interpersonal destructive relationships in the family, he defined each of them, recognizing that the destructive behavior of women, men, children, other family members is a factor determining the nature of the destruction of family relationships. The signs of interpersonal constructive and destructive relationships in the family are comparatively analyzed. There are also opinions that long-term presence in destructive relationships in the family often becomes the cause of psychosomatic diseases in family members, constant stress and tense environment negatively affect the mental and physical health of the couple and, what is most regrettable, hinder the development of family relationships. normal development of their children in the family. The advantages of using such psychological methods as "Don't blame your spouse!", "Recognize hidden needs!", "Establish new constructive relationships" in eliminating interpersonal destructive relationships in the family are described.

Key words: Family, interpersonal relationships, destruction, destructive personality, destructive love, conflict family, destructive family, destructive relationships, hidden need, relationship orientations, constructive relationships.

KIRISH. Oila muammosi har qanday jamiyatning eng muhim ijtimoiy-psixologik muammolaridan hisoblanib, uni hal qilish mamlakat tinchligi va xavfsizligi masalalari bilan bog‘liqdir. Mazkur muammo nisbatan yaqinda, o‘tgan asrning oxirida ilmiy tahlil mavzusiga aylandi. Oilada destruktiv munosabatlar sohadagi tadqiqotlar, asosan, oilaviy nizolar va ularning sabablari, oldini olish yo‘llari yo‘nalishida tadqiq etilgan bo‘lib, qoida tariqasida, har qanday turdagi nizoli (masalan, er-xotin o‘rtasidagi, qaynona-kelin, ota-ona va farzand, farzand-farzand va boshqalar) oilalarga qaratilgan. Bizning fikrimizcha, oilaning ijtimoiy ahvoli va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar oila

a'zolarining subyektiv (individual-psixologik, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, muloqot, destruktiv xulq va sog'lom munosabat o'rnatishga qobiliyatsizligi) xususiyatlarini ham oila mustahkamligi omili deb e'tirof etish mumkin. Shuning uchun o'rganilayotgan muammo bo'yicha mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish dolzarbdir.

Jismoniy, ruhiy, ma'naviy, aqliy kamoloti me'yorida bo'lgan, to'g'ri tarbiya ko'rgan va bular ta'sirida jamiyatda uzoq taraqqiyot natijasida shakllangan, ajdodlarimizning aqli-shuuri mevasi bo'lgan, insoniyatning hayotini tizimga solib turuvchi qoidalarni anglash, ularga amal qilishdek ijtimoiy mas'ullik xususiyati shakllanadi. Eng ahamiyatlisi bunday xislat bolalik davrida, oila qo'ynida, oilaviy munosabatlar negizida asta sekinlik bilan tarkib topadi va kishining ijtimoiy xulqi darajasida namoyon bo'ladi.

O'zaro munosabatlarda oila a'zolarining oilaparvarligi, o'zaro bir birlarini tushunishi, qo'llab quvvatlashi, o'zaro hurmat, o'ziga xos individual xususiyatlari, saviyasi, ijtimoiy mavqeyi, kasbi, dunyoqarashi, oiladagi mavjud muammolarga munosabati, muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyati kabilar oila mustahkamligi va tinchligining garovidir. Hayotda aynan shu kabi jihatlar yaqqol namoyon bo'lgan, oilaviy munosabatlari me'yorida bo'lib, baxtli turmush qurib oilasiga, yurtining tinchligi va faravonligiga katta hissa qo'shayotgan oilalar ko'p.

Ammo, ayrim oilalarda alohida oila a'zosining xulq-atvorida destruktivlikning mavjudligi tufayli oilada sog'lom psixologik munosabatlar o'rniga munosabatlarning buzilishi, o'zaro tushunmovchilik, aniqroqi tushunish istagining yo'qligi, bir so'z bilan aytganda destruktiv munosabatlar kuzatilayotganligi haqiqatdir. Bunday oilalardagi destruktiv munosabatlarning zamirida destruktiv shaxs yoki shaxslar turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. An'anaviy turmushda oiladagi asosiy xususiyat shundan iboratki, uning a'zolari umumiy hayot, axloqiy mas'uliyat va o'zaro yordam bilan o'zaro bog'langan bo'lib, oila yangi avlodlarni ko'paytirish funksiyasini amalga oshiradigan ijtimoiy institut hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bunday oila reproduktiv, ekzistentsial va birlamchi sotsializatsiya kabi o'ziga xos funksiyalarni bajaradi va oilada jinsiy tafovut, jinsiy ehtiyoj tufayli munosabatlar axloqiy hamda psixologik munosabatlar shaklida ko'zga tashlanadi.

Grigorova T.P. bolalikdagi tarbiya va oilaviy munosabatlarning hal qiluvchi roli haqidagi g'oyani ilgari surib: "turmush o'rtog'ini tanlash farzandlar tomonidan ularning oila haqidagi g'oyalariga muvofiq amalga oshiriladi va bu har bir shaxs ijtimoiy holati rivojlanishning o'ziga xos kontekstida shakllanadi." [1; S.133-140]. Jinsiy rol stereotiplarini tahlil qilish jarayonida qiz bola talabalarning tasavvurlarining sezilarli (21%) foizida erkaklar zararli va salbiy fazilatlarga egaligi: mas'uliyatsizlik, yolg'onchilik shuningdek, boshdan kechirgan salbiy his-tuyg'ular, g'azab, qo'rquv kabilar aniqlangan.

Shaxsning hayotida aks etgan oilaviy bolalik tajribasini E.Bernning tranzakt tahlili bilan bog'lashga bag'ishlangan ishlardan yana biri rus psixologi S.B.Tolstaya tadqiqotlari hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, "oila tarixining avlodlararo transformatsiyasi, bu keksa avlodlar oilasi a'zolari, ularning shaxsiy xususiyatlari, taqdiri, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, oilaviy urf-odatlar, qoidalar, marosimlar to'g'risida bilimlar to'plamidan iboratdir. Shaxs xotirasi shakllanishida oilaviy merosning genetik bo'lmagan omillari muhim rol o'ynaydi." [5; S. 139-142]. Shuningdek, bu borada S.N.Petrosyan va Z.I.Ryabikina tomonidan shaxsning hayotiy tasavvurlari muammosiga yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan katta tadqiqot ishlari olib borilgan.

Oila qator funksiyalarni: tarbiyaviy, iqtisodiy va maishiy munosabatlar,

intellektual aloqa, psixologik bo‘shatish funksiyasi, tug‘ish va jinsiy munosabatlar va boshqalarni bajaradigan ijtimoiylashuvning boshlang‘ich kichik ijtimoiy guruhidir. Jamiyatdagi disfunksional oilalarda oila a’zolaridan biri yoki bir nechtasi ko‘pincha xulq og‘ishlariga, kimyoviy qaramlikka ega bo‘lib, bunday oilalarda “abuse” va boshqa psixologik zo‘ravonlik, masalan, “neglekt” va “gazlayt” kabilar qo‘llaniladi.

“Abuse” - bu model tipidagi munosabatlar: tajovuzkor-jabrlanuvchi, unda sherikning xohish-irodasi bostiriladi, uning shaxsiy chegaralari buziladi, “abuse” qurboniga nisbatan psixologik, hissiy va hatto jismoniy zo‘ravonlik kabilar qo‘llaniladi. Voyaga etganida abuse xatti-harakatlarning sababi bolaga jismoniy, aqliy va hissiy zo‘ravonlik ota-onalar tomonidan ishlatadigan oilada travmatik tarbiya natijasi ham bo‘lishi mumkin.

Destruktiv oilalardagi neglekt-bu psixologik zo‘ravonlikning bir shakli bo‘lib, unda odam o‘ziga bog‘liq bo‘lgan subyektga nisbatan befarq va e’tiborsiz bo‘lib, uning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldiradi, hissiy sovuqlik va befarqlikni namoyon qiladi.

Destruktiv shaxs o‘zining xatti-harakatlarini adekvat baholay olmaydi, o‘zaro munosabatlarga, olamga g‘arazli qaraydi. Turmush o‘rtog‘ining, qaynona-qaynotasi va oilaning boshqa a’zolari tomonidan bildirilgan kichik tanbehni ham juda fojeali qabul qiladi. O‘zini xo‘rlangan, taxqirlangan, hatto o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik deb hisoblaydi va tezda bu holatga negativ javob qaytarishga harakat qiladi.

Oilaviy munosabatlar destruktsiyasining sabablari haqida gapirganda, ularning aniq tasnifini ajratib ko‘rsatish qiyin, chunki destruktiv munosabatli oilalar duch keladigan muammolar, qoida tariqasida, bir-biriga bog‘liqdir. Ko‘pincha oilaviy munosabatlar destruktsiyasi “psixologik stress” ga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, oilaviy nizolarni keltirib chiqaradi, o‘zaro munosabatlarini keskinlashtiradi, oila a’zolarining jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir qilib, ba’zan oila a’zolarini axloqsiz xatti-harakatlarga undaydi. [7].

Nizoli oila - bu oila a’zolari o‘rtasidagi qarama-qarshi motivlar va muayyan vaziyatda bir-biriga mos kelmaydigan maqsadlar asosida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni bildiradigan tushuncha bo‘lib, oila a’zolarining manfaatlari, niyatlari, istaklari to‘qnashuvi surunkali emotsional stress va oqibatda dushmanlikka olib keladi.

Destruktiv munosabatli oilada oila a’zolaridan biri yoki bir nechtasida destruktiv xulq, destruktiv xarakter, destruktiv muloqot kabilar xos bo‘lib, aynan shu kabi destruktsiya oqibatida oila a’zolari o‘rtasida turli ko‘rinishdagi ziddiyatlar, nizolar yuzaga keladi. Ya’ni oilada yuz beradigan nizoga destruktiv oila a’zosi va uning destruktiv harakatlari sabab bo‘ladi. Biz shartli ravishda oiladagi destruktiv munosabatga olib keluvchi quyidagi yo‘nalishlarni ajratdik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Inson hayoti davomida hech bo‘lmaganda bir marta destruktiv munosabatda bo‘lishi mumkin. Eng muqimi uning ta’siriga tushib qolmaslik hisoblanadi. Tushunmovchilik, azob-uqubatlar, xafagarchilik va bezovta qiluvchi fikrlarga kelib qolmaslik uchun vaziyatni to‘g‘ri idrok qilib pozitiv munosabatda bo‘lishga harakat qilish zarur. Oila sevgi asosida qurilganda er-xotin munosabatlari ijobiy bo‘lib, o‘zaro ishonch, hurmat, samimiylik ustunlik qiladi. Ammo hamma sevishib turmush qurganlarda ham bunday munosabat bo‘lavermaydi. Chunki ayrimlarda destruktiv sevgi kuzatiladi. Destruktiv sevgi - bu hech qachon rivojlanmaydigan munosabatlar ustun bo‘lgan sevgi hisoblanadi. Chunki bu erda barcha asosiy fikrlar davriy ravishda takrorlanadi.

Oilada destruktiv munosabat yo‘nalishlari

1-jadval

Destruktiv	*Sog‘lom*	*Sog‘lom*	*Sog‘lom*	*Destruktiv*	*Sog‘lom*	*Sog‘lom*	*Sog‘lom*

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

xulq	*xulq*	*xulq*	*xulq*	*xulq*	*xulq*	*xulq*	*xulq*
Erkak	Ayol	Farzand	Boshqa a'zosi	**Ayol**	Erkak	Farzand	Boshqa a'zosi
1-yo'nalish. "Erkak destruktiv xulqli bo'lgan oila." Erkak kishining destruktiv xulqi oilaviy munosabatlarda jiddiy muammolarga olib keladi. Ayniqsa, o'zbeklardagi "Erkak-oila boshlig'i" haqidagi xaqiqat destruktiv xulqli erkakda destruktsiyaning yuqori darajaga ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Bunday erkaklar bo'lgan oilalarda ayolga, farzandlarga katta talablar qo'yiladi.				**2-yo'nalish. "Ayol destruktiv xulqli bo'lgan oila."** Oilada ayolning destruktiv xulqi, asosan, eri, qaynonasi, ovsinlari, qaynsingil va qayn ukalari, ba'zan qaynota bilan munosabatlarda buzilishlar va nizolarga olib keladi. Destruktiv xulqli ayollar erlariga katta talablar qo'yadi va ularning asosiy printsiplari "Erkak kishi oilani boqishi, ta'minlashi kerak" dan iborat bo'lib, barcha mas'uliyatni hatto o'zi sababchi bo'lgan janjalli vaziyatlarni ham boshqalarga yuklaydi. Bunday ayollar ko'pincha oilada "ma'naviy ustun- ayol" "iqtisodiy ustun – erkak" bo'lishi kerak deb xisoblaydilar.			
Destruktiv xulq	***Sog'lom xulq***	***Sog'lom xulq***	***Sog'lom xulq***	***Destruktiv xulq***	***Sog'lom xulq***	***Sog'lom xulq***	***Sog'lom xulq***
Farzand	Erkak	Ayol	Boshqa a'zosi	**Boshqa a'zosi**	Farzand	Erkak	Ayol
3-yo'nalish. "Farzand destruktiv xulqli bo'lgan oila." Oilada farzand destruktiv xulqli bo'lishi ota-ona uchun katta uqubat va ruhiy zarba hisoblanadi. Destruktiv xulqli farzand ota-onasining munosabatlaridan aksariyat hollarda norozi, uladan biri yoki ikkisiga ruhiy azob berishga moyil, ijtimoiy zararli odatlari bilan oilasida, mahallada umuman jamiyatda deviant xulq bilan tanilgan, mustaqil xarakatlanishga ojiz. Agressiv xulqi tufayli munosabatlari ko'pincha nizo va kelishmovchiliklarga sababchi bo'ladilar, ba'zilari esa jinoyat yo'liga kirib ketadilar.				**4-yo'nalish. "Oilaning boshqa a'zosi (qaynona, qaynota, qaynuka, qaynsingil, yoki boshqa qarindashlar) destruktiv xulqli bo'lgan oila."** Bunday oilada doimiy bo'lmasada vaqti vaqti bilan janjallar kuzatiladi. Oilaning tinchligi buziladi, uning a'zolari o'rtasida har xil kelishmovchilik, kamsitish, g'iybat, g'ashiga tegish kabilar oqibatida oiladagi ruhiy muhit buziladi. Bunday oiladagilar o'zini oilada noxush sezadi, begonalashish, tarafkashlik kuchayadi va asta sekin oila ichidan emirilib boshlaydi.			

Destruktiv oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, oila a'zolarining hech biri oiladagi psixologik muhitdan mamnun emas, lekin hech kim vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirishga qodir bo'lgan harakatlarni qilishga tayyor xam emas.

Uzoq vaqt davomida destruktiv munosabatlarda bo'lgan odamlar ko'pincha psixosomatik kasalliklar bilan og'riy boshlaydilar. Doimiy stress va keskin muhit er-xotinning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi, shuningdek, oilada farzandlarining normal rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Konstruktiv va destruktiv oiladagi psixologik munosabatlar tahlili

2-jadval

Konstruktiv oiladagi ichki psixologik munosabatlar	Destruktiv oiladagi ichki psixologik munosabatlar
Shartsiz sevgi konstruktiv oilaning ajralmas qismi sifatida o‘zini va boshqalarni sevish va hurmat qilish qobiliyatiga asoslanadi.	Destruktiv oilada odamlar faqat nimanidir sevadilar. Masalan, bola ota-onaning ma’lum bir talabini bajarishdan bosh tortishi natijasida uning sevgisidan mahrum bo‘lishi mumkin.
Konstruktiv oilada har bir kishining, hatto xonadonning eng kichik a’zosining ham shaxsiyatiga hurmat bo‘ladi. Ota-onalar farzandlarining o‘zlari xohlagandek harakat qilishiga ruxsat berishga tayyor bo‘ladilar.	Destruktiv oilada bola tug‘ilishidan ancha oldin uning kelajakda kim bo‘lishi belgilab qo‘yiladi. Uning shaxsiy manfaati, ehtiyoji, qobiliyati hech kimni qiziqtirmaydi.
Barcha tushunmovchiliklar o‘zaro muloqot orqali hal qilinadi. Oila a’zolari oila tinchligi va farovonligini buzmaslik uchun muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaydi.	Destruktiv oilada erkinlik,bir qator masalalarni muhokama qilish, ular haqida gapirish taqiqlanadi, ular hech qachon ko‘tarilmaydi yoki muhokama qilinmaydi.
Oila a’zolari bir-birlariga ishonadilar. Ular uchun hech kim biror narsani isbotlashi shart emas. Oila a’zolari o‘zining eng samimiy tuyg‘ularini baham ko‘rishiga o‘zaro ishonchi mavjud bo‘ladi.	Destruktiv oilada esa oila a’zolari aksariyat hollarda faqat kimgadir qarshiliklari uchun birlashib, muammolar bartaraf etilishi o‘rniga kuchayib boradi.
Katta yoki yosh bola bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir oila a’zosining shaxsi hurmat qilinadi. Ularning har biri o‘zi, hayoti va undagi o‘rni haqida o‘z qarashlariga ega va boshqalarning ham xuddi shunday qarashlarini qadrlaydi.	Shaxsiy psixologik imkoniyatlar kam hisobga olinadi. Oila a’zolaridan bittasining fikri, boshqalarinikidan farq qilsa, uni qoralab, masxara qiladilar. Oilaviy munosabatlar doirasidan chetga chiqadigan har qanday shaxsiy istak va ehtiyojlar jiddiy qabul qilinmaydi.
Psixologik jihatdan oila a’zolaridan birining xatolari tushunib, qabul qilinadi va xato qilgan odamni tinchlantirib, unga yordam ko‘rsatiladi. Bunday oilalarda o‘zaro bir birlariga yangiliklarrni o‘rganishga yordam beradigan tajriba mavjud.	Yarim tonlar mavjud emas, faqat “juda yaxshi” va “juda yomon” mavjud. Uning qadriyatlar tizimidagi xato mutlaq “juda yomon” yoki aybdor deb baholanadi va noto‘g‘ri harakat yoki xato qilgan odamning shaxsiyati qattiq tanqid qilinadi.
O‘zaro bir-birlari bilan yoki boshqalar bilan bag‘rikenglik asosida munosabatlar o‘rnatiladi. Unda shaxs o‘ziga xos fazilatlar, qobiliyat va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida qabul qilinishi an’anaga aylangan.	Bolalarni tarbiyalashda ko‘pincha taqqoslash usuli go‘llaniladi. Jumladan, Akram tozakor va aqlli, Adham esa va bunday munosabat oilaning butun tizimiga taalluqli bo‘ladi.
Konstruktiv oilada his-tuyg‘ularni o‘zaro ochiq izqor qilish rag‘batlantiriladi va bu bir birlarini opichlash, erkalatish, quchoqlash, o‘pish kabilarda o‘zini namoyon qiladi.	Destruktiv oilada his-tuyg‘ularni o‘zaro ochiq izqor qilish qat'iyan man etiladi va salbiy baholanadi. “qashimga tegma”, “erkalik qilma”, “yaltoqlanma” kabi iboralar qo‘llaniladi.

XULOSA. Oilada sharxlararo destruktiv munosabatlarning shakllanishi va namoyon bo‘lishining xususiyatlari xilma xil bo‘lib, ularni bartaraf etishda to‘g‘ri tanlangan psixologik usullarni qo‘llash ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlashi shubhasizdir.

Oiladagi destruktiv munosabatlarni yaxshilashning psixologik usullari sifatida psixologik treninglar, psixologik maslahat kabilar qo‘llaniladi.

“Umr yo‘ldoshingizni ayblamang!” qonunini qo‘llashda muayyan vaziyatlar oila a’zolari tomonida to‘g‘ri talqin etilishi zarur. Jumladan, erkak va ayol o‘rtasidagi barcha destruktiv munosabatlar, albatta, bitta o‘ziga xos xususiyat bilan birlashtirilgan. Har bir sherik munosabatlardagi barcha aybni muvaffaqiyatsizlik bilan bog‘lashga harakat qiladi, lekin ularning hech biri xato qilganini tan olishni istamaydi.

Destruktiv munosabatlarning klassik namunasi: ichkilikbozlikdan aziyat chekadigan va oiladagi zo‘ravonlik namoyon bo‘lishiga moyil bo‘lgan er vaqti-vaqti bilan rafiqasiga tajovuzni namoyon qilish kerakligini ta’kidlaydi. Xotin, o‘z navbatida, bu ahvoldan juda norozi, lekin er -xotinni “buyuk sevgi” birlashtirgani va har bir zo‘ravonlikdan keyin, er chin dildan pushaymon bo‘lgani uchun, munosabatlar davom etadi. Bunday munosabatlarning destruktiv jihati shundaki, turmush o‘rtog‘i qanchalik pushaymon bo‘lmasin, bu oilada jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik holatlari qayta-qayta takrorlanadi.

Buning sababi shundaki, er va xotin doimiy ravishda “ta’qib qiluvchi” va “jabrlanuvchi” rolini o‘ynaydi va juda kamdan kam hollarda yaqin bo‘ladilar. Erkakning tajovuzkor hujumlari paytida, u ta’qibchiga aylanadi va har bir muvaffaqiyatsizligi uchun xotinini ayblaydi va pushaymon bo‘lganidan keyin, erkak xotinining e’tiborsizligi qurboniga aylanadi, ayol erkakni “qayta o‘qitish” kerak deb qaror qiladi. Oxir-oqibat, qurbonning pozitsiyasi turmush o‘rtog‘ini bezovta qiladi va u yana faol tajovuzkor harakatlarga murojaat qilib, ta’qibchiga aylanadi. Demak, destruktiv munosabatlardan qutilishi uchun oila a’zolari bir birlarini ayblashdan o‘zini tiyishlari kerak.

“Yashirin ehtiyojlarni tan oling!” qonuni. Albatta, oilada har qanday kelishmovchilik asosida er yoki xotinning ochiq oshkor eta olmaydigan yashirin, qondirilmagan ehtiyojlari turadi. Destruktiv munosabatlardagi og‘riqli vaziyatdan chiqish yo‘lini topish uchun yashirin ehtiyojlaringizni tan olishni, ularni ko‘proq konstruktiv yo‘llar bilan qondirishga harakat qilish lozim. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilanishi uchun, ular o‘z aybini tan olishi, to‘g‘ri fikrlashi va xulq-atvorini o‘zgartirishlari zarur bo‘ladi.

“Yangi konstruktiv munosabatlarni o‘rnating!” qonuni. Destruktiv munosabatlar tugagandan so‘ng, hech qachon munosabatlarni boshlashga shoshilmaslik zarur. O‘tmishdagi munosabatlardan norozi bo‘lishga olib kelgan voqealarni qayta ko‘rib chiqishga harakat qilinishi lozim.

Kishi yangi munosabatlarga kirishsa, ruhiy shikastlangan emas, aksincha, ishonchli va boshlarga ishonch bo‘lishi muhim. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, boshqalar hech qachon sizning ehtiyojlaringizni to‘liq qondira olmaydi. O‘zingizning ichki psixologik ehtiyojlaringizni boshqa, hatto eng yaqin odam hisobiga ham hal qilib bo‘lmaydi. Yana shuni unutmangki, siz alohida, mustaqil odamsiz va shaxsiy baxtingiz uchun to‘liq javobgarsiz. Oiladagi destruktiv xatti - harakatlardan qoching, chunki oilaviy munosabatlarning asosiy maqsadi sherigingizni barcha baxtsizliklar uchun ayblash emas, vaqti-vaqti bilan noroziligingizni turli yo‘llar bilan ifodalash emas, balki boshqa odam bilan baxtli bo‘lishdir.

Xulosa qilib aytish joizki, oilalarda destruktiv munosabatlar oila buzilishiga, oila a’zolarining o‘z turmushidan qoniqishning yo‘qolishiga, ajrimlarga ba’zan esa jinoyatlarga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan oilaviy munosabatlar destruktsiyasini bartaraf etishda turmush qurish yoshidagi yigit qizlarning xulq-atvorida destruktivlikni maxsus psixologik metodikalar yordamida o‘rganish, destruktsiyaga moyilligi bo‘lgan yoshlar

bilan psixologik korrektsion ishlarni tashkil etish muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Григорова Т.П. Представления студентов о семье как проявление жизненного сценария и совладания с его трудностями. Вестник Костромского государственного университета. 2016. -140 с.
2. Злоказов К. В. Деструктивное поведение в различных контекстах его проявления // Вестник Удмуртского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика». — 2016
3. Петросьян С.Н., Рябикина З.И. Современные подходы к проблеме жизненного сценария личности как социально-психологического феномена. Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология, 2016, С.123-135
4. Сатыбалова Е.В. Человеческая деструктивность: основания и формы проявления Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук Екатеринбург 2002, стр.17.
5. Толстая С.В. Межпоколенная трансляция семейной истории: теоретические аспекты в зарубежной психологии. Проблемы современной науки и образования, 2015, С.139-142
6. Шарафутдинова Х.Г. Destruktion of family pelations psychoprorkophylaxis family – neighborhood educational institution South Asian Academic Research Journals -ISSN: 2249-7137. Vol. 10 Issue 11, November 2020. p 1005-1012.
7. Шарафутдинова Х.Г. Ижобий кайфият ва инсон руҳияти хусусиятлари Республика илмий-амалий конференция материаллари то‘плами Тошкент 2020 й. 25 май, 271-275 б.
8. Куликов В. Б., Злоказов К. В. Деструктивное поведение: теоретико-методологический аспект // Психопедагогика в правоохранительных органах/ − 2006. С. 28-45.